

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

Qo‘qon davlat universiteti

rektori D.Sh. Xodjayeva

29-avgust 2025 yil

TIBBIYOT GEOGRAFIYASI

FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100 000 - Tabiiy fanlar, matematika va statistika		
Ta’lim sohasi:	530000 - Fizika va tabiiy fanlar		
Ta’lim yo‘nalishi:	70530203-Aniq va tabiiy fanlarni (Geografiya)	o'qitish metodikasi	

Qo‘qon – 2025

Fan/modul kodi		O‘quv yili	Semestr	ECTS-kreditlar
TG2105		2025-2026	1	5
Fan/modul turi (Tanlov)		Ta’lim tili O‘zbek	Semestrga ajratilgan soat 150	Haftdagi dars soatlari 4
1	Fanning nomi	Audutoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama
	Tibbiyot geografiyasi	60	90	150
2	I. Fanning mazmuni: Tibbiyot geografiyasi fani tibbiyot gogrfiyasi fanining shakllanishi va rivojlanishi, tarixi, uning fanlar tizimida tutgan o‘rni, ob‘yekt va predmetini o‘rgatadi. Tibbiyot geografiyasi fanining dolzarb muammolari va istiqbolli yo‘nalishlari bilan tanishish, bo‘lgusi geograflarni o‘z ilmiy potentsialini oshirishi haqida malumotlar berish, magistrming umum ilmiy kompetentligini shakllantirish, ilmiy va ta’limiy masalalarni yechish kabilardan iboratdir. Fanning asosiy vazifalari: - talabalar tomonidan tibbiyot geografiyasi fanidan asosiy nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni egallash; - tibbiyot geografiyasi manbalarini tahlil qilish va tibbiyot geografiyasi tamoyillari va talablaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish; - tabiatda ekologik muvozanatning buzilishi, ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilarining ekologik va tibbiy yondashuvlarda ilmiy-amaliy harakat qila olish qobiliyatini rivojlantirish Fanning asosiy manbalari: Tibbiyot geografiyasi fani o‘z manbalariga ega bo‘lib, mamlakatning oliy vakillik organi hamda vakolatli davlat hokimiyat idoralari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy xujjatlar hamda ilmiy adabiyotlar tibbiyot geografiyasi fanining manbalari bo‘lib hisoblanadi. Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi: Tibbiyot geografiyasi fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalaridan biri bo‘lgan Moskva davlat universiteti (Rossiya)ning “Atrof-muhit va aholi salomatligi” fanining o‘quv dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings 2025-yil bo‘yicha 105-o‘rinni egallagan bo‘lib, geografiya sohasi bo‘yicha yuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega. Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan: Nazariy va amaliy yondashuv uyg‘unligi – Moskva davlat universiteti (Rossiya)ning “Atrof-muhit va aholi salomatligi” kursida kasalliklar geografiyasi yuzasidan nazariya bilan bir qatorda, zamonaviy tadqiqotlar amaliyoti ham keng yoritiladi.			

Xalqaro standartlarga muvofiqlik – dastur xalqaro talablarning ekologiya va inson salomatligi tamoyillari asosida boyitilgan.

Tanqidiy fikrlash va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish – talabalar ekologik holatning inson salomatligiga ta'siri bo'yicha yuzaga kelgan holatlarni mustaqil tahlil qilish, omillarga tayangan holda ilmiy xulosa chiqarishni o'rganadilar.

II. ASOSIY NAZARIY QISM (MA'RUZA MASHG'ULOTLARI)

1-mavzu: Tibbiyot geografiyasining ob'yekti, predmeti, tarixiy shakllanishi

Tibbiyot geografiyasi fanining o'rganish ob'yekti va predmeti, tibbiyot geografiyasining fanlar tizimida tutgan o'rni, tibbiyot geografiyasida qo'llanuvchi tadqiqot usullar, tibbiy geografik tadqiqotlar, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish, tibbiy geografik rayonlashtirish, tibbiy geografik prognozlashtirish.

2-mavzu: Nozogeografiya

Nozogeografik tadqiqotlarning ilmiy-nazariy masalalari, Nozogeografiya tarixi, transmissiv kasalliklar va gelmintozlar ustida olib borilgan tadqiqotlar, nozogeografik majmualar, nozogeografik o'choq va nozogeografik areal, nozogeografik tadqiqotlar, nozogeografik vaziyat, transmissiv kasalliklar

3-mavzu: Tibbiy-geografik rayonlashtirish

Tibbiy geografik rayonlashtirish haqida tushuncha, tibbiy geografik rayonlashtirish borasida olib borilgan tadqiqotlar, tibbiy geografik rayonlashtirish mezonlari, tibbiy geografik rayonlashtirish, rayonlashtirish mezonlari, landshaft turlari.

4-mavzu: Tabiiy geografik omillar va ularning aholi salomatligiga ta'siri.

Tabiiy geografik omillar, iqtisodiy geografik omillar, ijtimoiy geografik omillar, abiotik omillar, biotik omillar, tabiat komponentlarining o'zgarishi va aholi salomatligi.

5-mavzu: Iqlim omillari va ularning aholi salomatligiga ta'siri

Iqlim hosil qiluvchi omillar, ob-havo, iqlim mintaqalari, rel'yef shakllari, havo massalari harakatining aholi salomatligiga ta'siri. Iqlim o'zgarishi omillari va ularning aholi salomatligiga ta'siri.

6-mavzu: Atrof-muhitning fizik va kimyoviy ifloslanishi

Ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish va uning aholi salomatligiga ta'siri. Atrof-muhitning fizik va kimyoviy ifloslanish manbalari. Ekologik muammolarni xalq etish yo'llari.

7-mavzu: Inson ekologiyasi

Ekologiyaning fan sifatida yuzaga kelishi, ekologik muammolar va ularning inson salomatligiga ta'siri, ijtimoiy ekologiya, inson ekologiyasi, nozoekologiya, atrof-muhitning inson xo'jalik faoliyati ta'sirida ifloslanishi, global ifloslanish, aholi salomatligi, aholi o'limi.

8-mavzu: Urbanizatsiyalashgan hududlarda havoning ifloslanishi.

Urbanizatsiya jarayoni, omillari, turlari, xususiyatlari. Urbanizatsiya va

atrof-muhit. Ishlab chiqarish jarayonining urbanizatsiya jarayoniga ta'siri, havoning ifloslanishi va inson salomatligi.

9-mavzu: Aholi salomatligi va aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish geografiyasi.

Kasalliklarning umumiy tasnifi, Noinfeksion va yuqumli – parazitari kasalliklar guruhlar, xavfli o'sma kasalliklari geografiyasi, yuqumli - parazitari kasalliklarning hududiy tarkibi, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishni hududiy tashkil etish masalalari.

10-mavzu: Xalqaro salomatlik bilan bog'liq muammolar va ularni hal etish yo'llari.

Xalqaro doirada aholi salomatligi va kasalliklar geografiyasi, tibbiyot geografiyasida epidemiologik yondashuvlar, XX asrda sog'liqni saqlash masalalari, Sog'liqni saqlash tizimlarini barpo etish va ularni boshqarish, Ona va bola salomatligi, Ovqatlanish va sog'lom turmush tarzi, Jahon Sog'liqni Saqlash tashkiloti faoliyati, UNICEF – O'zbekiston xalqaro hamkorlar birligi.

11-mavzu: Aholi salomatligiga ijtimoiy omillarning ta'siri

Sog'liqni saqlash tizimi, xalqaro jamgarmalar, Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Geografik yondashuv, Geografik determinizm, Global ifloslanish, Aholi salomatligi, gerontologiya, perenatal o'lim, neonatal o'lim, postneonatal o'lim, ijtimoiy hayot, ijtimoiy munosabatlar.

12-mavzu: Oila salomatligi

Oila salomatligi va ijtimoiy geografik jihatlar. Ona va bola salomatligi. Qariyalar salomatligi. Gerontologiya va uning qariyalar salomatligini o'rganishdagi o'rni. Aholining umr davomiyligi.

13-mavzu: Nozogeografik tadqiqotlarda demografik bilimlarning qo'llanilishi

Aholi salomatligi va demografik yondashuvlar. Tug'ilishning umumiy ko'rsatkichlari, Umumiy o'lim ko'rsatkichi. Letallik ko'rsatkichi. Go'daklar o'limi ko'rsatkichi. Fertillik (pushtlilik) koeffitsienti. Onalar o'limi. Tug'ilgan mahalda kutiladigan umr.

14-mavzu: Atrof-muhitning aholi sog'lig'iga ta'siri va kasb kasalliklari

Atrof-muhit holatining ayrim jihatlar. Geografik epidemiologiya va atrof-muhit epidemiologiyasi. Kasb kasalliklari. Atrof-muhitni muhofaza qilishning maqsad va vazifalari. Sanitariya-gigienik tadbirlar.

15-mavzu: Jahonning global muammolari

Insoniyatning global muammolari. Global muammolarning o'zaro aloqadorligi. Ekologik muammolar, qoloqlik, demografik muammolar, oziq-ovqat muammosi, energetika muammosi, tabiatdan foydalanish va aholi salomatligi.

3 III. AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulotlari uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1-mavzu: Tibbiyot geografiyasining ob'yekti, predmeti, tarixiy shakllanishi

2-mavzu: Nozogeografiya

	3-mavzu: Tibbiy-geografik rayonlashtirish 4-mavzu: Tabiiy geografik omillar va ularning aholi salomatligiga ta'siri. 5-mavzu: Iqlim omillari va ularning aholi salomatligiga ta'siri 6-mavzu: Atrof-nuhitning fizik va kimyoviy ifloslanishi 7-mavzu: Inson ekologiyasi 8-mavzu: Urbanizatsiyalashgan hududlarda havoning ifloslanishi. 9-mavzu: Aholi salomatligi va aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish geografiyasi. 10-mavzu: Xalqaro salomatlik bilan bog'liq muammolar va ularni hal etish yo'llari. 11-mavzu: Aholi salomatligiga ijtimoiy omillarning ta'siri 12-mavzu: Oila salomatligi 13-mavzu: Nozogeografik tadqiqotlarda demografik bilimlarning qo'llanilishi 14-mavzu: Atrof-muhitning aholi sog'lig'iga ta'siri va kasb kasalliklari 15-mavzu: Jahonning global muammolari
4	IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi: - esse – dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish; - dokladlar tayyorlash; - kurs ishi yozish; - konspekt yozish; - glossariy tuzish; - individual va guruhiiy o'quv loyihasi; - keys-topshiriqlarini bajarish; - axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash; - manbaalar bilan ishlash; -chizma-tasviriiy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish; - multimediali taqdimotlar yaratish; - darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash; - darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmalarini tayyorlash; ta'lim yo'nalishi(mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin. Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'lim mavzulari: 1. Tibbiy geografik tadqiqotlarda rayonlashtirish masalalari. 2. Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasi. 3. Abu Ali Ibn Sino asarlarida tibbiy geografik bilimlarning yoritilishi. 4. Nozogeografik tadqiqotlar. 5. Geografik patologiyalar. 6. OITS/OIV geografiyasi. 7. Global pandemiyalar va ularni o'rganish. 8. Tibbiyot kartografiyasi va uning rivojlanishi. 9. Urboekologiya 10. CHo'l va dengiz kasalliklariga tibbiy geografik tahlil.

	11. Tog' va o'rmon kasalliklariga tibbiy geografik tahlil. 12. Neonatal va Perinatal o'lim ko'rsatkichlari geografiyasi 13. Endemik bo'qoq va uning geografik tarqalishi. 14. Onkologik kasalliklar geografiyasi. 15. Patologik jarayonlarga ta'sir etuvchi geografik omillar. 16. Iqlim va inson salomatligi. 17. Allergik kasalliklar geografiyasi. 18. Tsivilizatsiya kasalliklariga tibbiy geografik tahlil. 19. Mavsumiy kasalliklar va ularni geografik jihatdan o'rganish. 20. Yurak, qon-tomir kasalliklari va ularga tibbiy geografik tahlil. 21. Irsiy kasalliklar geografiyasi.
5	V. TA'LIM NATIJALARI (SHAKLLANADIGAN KOMPETENSIYALAR) Talaba bilishi kerak: Aholi va hududlar kesimida kasalliklarning qiyosiy tahlil qilish shaklida kollokvium. 1) Tibbiy geografik bilimlar; 2) tabiiy geografik omillar; 3) sanoat, qishloq xo'jaligi, transport tarmoqlari va aholi salomatligi; 4) kasalliklarning hududiy jihatlar; 5) ijtimoiy omillar va aholi salomatligi; 6) oila; 7) sog'lom turmush tarzi. 2-modulning ikkinchi yarmida, oxirgi seminarlardan birida taqdimotlar shaklida amalga oshiriladi. Kollokvium o'tkaziladigan sana to'g'risida talabalar modul boshida, birinchi yoki ikkinchi dars davomida ma'lum qilinadi. Guruh kichik guruhlariga bo'linin ishlashi mumkin. Kollokviumning maqsadi o'qituvchi tomonidan ilgari taklif qilingan sxema (savollar ro'yxati - mezon) va qo'shimcha ravishda bir guruh talabalar tomonidan taqdim etilgan taqdimot shaklida turli qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Materiallar (matnli ma'lumotlar shaklida), taqdimot taqdim etilgandan so'ng, har bir kichik guruh kichik guruhlarining boshqa a'zolari va o'qituvchining savollari bilan muhokama qilinadi. Mazmun jihatidan kollokvium tibbiyot geografiyasi kursining ma'lum qismini qamrab oladi. Taqdimotni tayyorlash jarayonida talabalarga har qanday manbalardan foydalanishga ruxsat beriladi. Aholi salomatligiga ta'sir etuvchi ekologik omillarning ilmiy tahlilini shakllantirish vazifalarini amalda qo'llay bilish ko'niklariga ega bo'lishi lozim. (malaka)
6	VI. Mavzu yuzasidan savollar: 1. Tibbiyot geografiyasi fanining asosiy yo'nalishlarini izhlang. 2. Aholi salomatligiga ta'sir etuvchi tabiiy geografik omillarni izohlang. 3. Aholi salomatligiga ta'sir etuvchi iqtisodiy geografik omillarni izohlang 4. Aholi salomatligiga ta'sir etuvchi ijtimoiy geografik omillarni izohlang. 5. Kasalliklarning hududiy tarqalishiga ta'sir etuvchi omillarni ayting. 6. Sog'lom turmush tarziga amal qilish yuzasidan fikrlaringiz bilan o'rtoqlashing.

7	VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: guruhlarda ishlash; amaliy mashg'ulotlar taqdimotlarni qilish; individual loyihalar; jamo'a ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. ijodiy ishlar yaratish
8	VIII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni, bilimlarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yurita olish va joriy, oraliy nazorati shakllarida berilgan topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test topshiriqlarni bajarish
10	Asosiy adabiyotlar: 1. <u>Melinda S. Meade and Michael Emch Medical Geography, Third Edition</u>, 2010 2. Brown, T., McLafferty, S. and Moon, G. (eds.) (2009) A Companion to Health and Medical Geography, Oxford, Wiley-Blackwell 3. Komilova N.Q. Tibbiyot geografiyasining nazariy va amaliy masalalari. Monografiya. - Toshkent, - SHARQ, 2016. 277 b. 4. Малхазова С.М. Медико-географический анализ территорий: картографирование, оценка, прогноз. - М.: Научный мир, 2001. 240 с. 5. Komilova N., Ravshanov A., Muhammedova N. Tibbiyot geografiyasi va global salomatlik. O'quv qo'llanma. T. - Universitet, 2018 y. Qo'shimcha adabiyotlar: 6. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda. 7. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollarga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi // Xalq so'zi gazetasi 2017 yil 16 yanvar, № 11. 8. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: O'zbekiston, 2017. 9. Прохоров Б.Б. Здоровье человека как функция истории и географии // Энергия. 2002. - С. 32-36. 10. Прохоров Б.Б. Прикладная антропоэкология. Учебник. М.: изд-во МНЭПУ, 1998. - 312 с. 11. Малхазова С.М., Тикунов В.С. Медико-географический подход к оценке кризисных экологических ситуаций. География: (Программа Университеты России): - М.: Изд-во МГУ, 1993. - С. 171-181. 12. Komilova N.Q., Soliyev A.S. Tibbiyot geografiyasi. - Toshkent, "Istiqlol", 2005. 13. World Population Data Sheet of the Population Reference Bureau.

	2017. Elektron axborot manbalari: 14. http://demography.narod.ru. 15. www.demoscope.ru. 16. www.undp.org/popin/popin.htmlwww.stat.uz https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/mag_E/m_E_fgm_kachestvo_sredy_y_zdorovie%20naseleniya_2021.pdf
11	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan
12	Fan/modul uchun mas’ul va dastur muallifi: Mo‘minov Doniyor G‘ulomovich – “Geografiya va iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, g.f.n.
13	Taqrizchi: Qo‘ziboyeva Ozodaxon Mahmudovna - “Geografiya va iqtisodiyot” kafedrasida professori g.f.d.